

SADOQAT SAROYINING MANGU MALIKASI YOXUD ZULFIYAXONIM HAMID OLIMJONNING SO‘NGSIZ ARMONI

Namuna Abduraxmonova

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi

Hijroning qalbidam, sozing qolimda,
Hayotni kuylayman chekinar alam.
Tunlar tushimdasam, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotasan sen ham!

Umr o‘tib bormoqda. Umr o‘tgan sari odam bosib o‘tgan yollarini, boshidan kechirgan yillarini tez-tez eslab turar ekan. Inson bosib o‘tgan yillar va yo‘llar -nimadur bular? Masofami, vaqti va boshqa narsami, menimcha, ular umring davomida senga rópara kelgan, hayotingda iz qoldirgan odamlar- dóstlar, qarindoshlar, uztozlar, safdoshlar. Afsuski, ulardan ancha-munchalari allaqachon shoir Shayxzoda ta‘biri bilan aytqanda, “xechiston” mamlakatiga rixlat qilishgan, lekin ularning ruhi poklari tirik, bot- bot xuzurimga kelib turishadi, ğurunglashamiz, dardlashamiz, maslahatlar ko‘ramiz.

Men har tong Zulfiyaxonimni eslayman. U kishining matonati, sabri va irodaligini eslab ózinga kuch olaman. Zulfiyaxonim juda ham serqirra ijodkor bo‘lgan. 1932 yilda 17 yoshida ilk birinchi she‘rlar to‘plami-“Hayot varaqlari” bosib chiqqan. Hayotda donolik va bilimning sira tuganmas konlari shu qadar ko‘p ekanki, undan baxramand bo‘lish uchun butun umrni sarflasa ham yetmasa kerak. Men Zulfiyaxonimning hamma narsalarni birdan yaxshi bilib olishga intilishlari meni qiziqtirar edi. U Navoiy va Pushkin, Xofiz va Shekspir, Lermontov va Lutfiyini asarlarini ko‘p óqir va óqishga intilishlari menga juda ham o‘rnak bo‘lgan. Men Zulfiyaxonim sherlarini, hayot va ijodlarini óqir ekanman ózim ham qandaydir juftlangan, ohangdosh, allaqanday baytlar to‘qiy olayotganimni payqayman.

Zulfiyaxonim eng umri davomining eng go‘zal paytlarini turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon bilan ótkanganini ko‘p she‘rlaridan bilib olish mumkin. Zulfiya Isroilova Hamid Olimjonni quydagicha xotirlaydi; “ Kóp ótmay, hayot menga yanada talabchan va qattiqqo‘l muxarrirni baxsh etdi. Hayotimning ón yili, faqatgina shu ón yili Xamid Olimjon bilan hamnafas va hamqadam ótgani men uchun ulkan baxt bo‘ldi. U eng gullagan yoshlik chog‘ida, rang- barang, sira tuganmas, yorqin iste‘dodining kamol chóqqisiga yetganda fojiali halok bo‘ldi”

Sog‘ingandan izlab bir nishon,
Qabring tomon men olaman yo‘l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi xar chog‘ men eltaman gul.

Zulfiya she‘riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, inson ruhiya-tini g‘ajib tashlay oladigan hijron to‘g‘risidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she‘rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onaiarga, barcha ma‘shuqalarga xos, tushunarli, anglanarli bo‘lgan she‘riyati aslo eskirmaydi. Uning asarlarida halol inson tuyg‘ularining porloq yulduzi charaqlab turadi.

“Zulfiyaxonim she’rlarida tong timsoli, tomg tasviri buyuk erk, buyuk baxt, buyuk davr, buyuk va yorug‘ dunyo timsolidagi jaranglab ketganligi va xanuz óshandoq jaranglab turganligi xech kimga sir emas, xammasi faqat mehnatdan, uzluksiz mehnatdan deb óylayman. Kóz óngimda Zulfiya sherlari asosida yaratilgan Ózbekiston dostoni namoyon bo‘ladi. Uning ijodini óqiman, zexn solaman, tuyğun va ma’naviy boy xalqimiz bilan birga uning qizi Zulfiya kamol topgan va xanuz yuksalishda. Yashnagan o‘lka- Ózbekistonda bog‘lararo Zulfiya qóshiqlari yangraydi. Zulfiyaxonimning Hamid Olimjonga vafodorligi uning she’rlari - chinakam. Ya’ni ular nozima emas shoira edilar. Ózbek tabiati, ózbek qalbi, ózbek mehnatkashining buyuk dóstona oiladagi baxtiyorligi, o‘zbek ayolining yorqin va suluv siymosi, dardi va baxti , tóy va tomoshasi – mana Zulfiyaning she’riyati.

Insoniyat bir umr nurga, ziyoga intiladi. Nurni ushlab ham, xovuchlab ham bólmaydi. Lekin nurni ham xuddi shudrimglarni xovuchlaganday kaftda xovuchlab olib, she’riyat izmiga solish, tariflar, qofiyalar, fikr bóyoqlari qariga singdirish salohiyatiga ega bo‘lgan ustozlarning biri -Zulfiyadir.....

Zulfiyada ham shoir sifatida, ham inson sifatida eng muhim fazilat- undagi yaxlitlik, intilishlarning kengligi, she’riyatda, ijodda, ijtimoiy hayotda va tinchlik uchun bo‘lgan kurashlarda fidoyilik deb bilaman.

Katta hayot yo‘lini bosib ótib, ko‘pgina yaxshi kitob yozib qo‘ygan kishiga bo‘lgan munosabatingni ikkisi og‘iz so‘z bilan ifoda etish mushkul.

Zavqlar, haroratlar, hayajonlar o‘lkamizga boshlaguvchi Zulfiya she’riyatining óquvchisi ham minglab, millionlabdir. Men ularning biriman.

1915-yil Isroil degrez xonadonida,

Qizaloq tug‘ildi buyuk shoira.

Uni atadilar Zulfiyaxonim deb,

Qoshida yaltirar oltin misol deb.

Zulfiya óqirdi, qilardi xitob.

Ón yetti yoshida yozdi u kitob.

So‘ngra u “ Nilufar” sovrini oldi

Barcha qalamkashlar hayratda qoldi

Zulfiya Hamidga ko‘nglini qo‘ydi

Baxtiyor hayotning zavqini tutdi

Ayni kuz chog‘i uning hayot chirog‘i abadiy o‘chdi

Undan meros qoldi ajib she’rlari

Uning ortidan eng komil farzandlar undi.